

Muallif: Namangan viloyat Mingbuloq tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43 – umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi
Qaxorova Gulchexra

9-sinf.

IV-chorak test savollari.

1. Geterozigota organizmlarni chatishtirish natijasida olingan avlodlarning ma'lum qismi dominant belgilarni, boshqa qismi esa resessiv belgilarni namoyon qiladi.

Bu jarayon..... deyiladi.

A) Chala dominantlik B) Belgilarning ajralishi C) Tahliliy chatishtirish D) Allel genlar

2. Mendelning uchinchi qonunida belgilar qanday nisbatda amalga oshadi?

A) 1:1 B) 3:1 C) 9:3:3:1 D) 9:7

3. Drozofila laboratoriya sharoitida oson ko'payadi, xromosomalarining diploid soni bo'ladi.

A) 6 ta B) 16ta C) 12 ta D) 8 ta

4. Erkaklari bilan urg'ochilaridan farq qilmaydigan, bir xildagi xromosomalar nima deb ataladi?

A) Jinsiy xromosomalar B) Autosomalar C) Gaploid xromosomalar D) Somatik xromosomalar

5. Qaysi kasalliklar xromosomada uchraydi?

A) Polidaktiliya B) Sindaktiliya C) Daun sindromi D) Albinizm

6. Genlarning polimer ta'siri

A) Allel bo'lmagan bir nechta gennig bitta belgining rivojlanishiga o'xshash ta'sir ko'rsatishidir.
B) Allel bo'lgan bir nechta gennig bitta belgining rivojlanishiga o'xshash ta'sir ko'rsatishidir.
C) Allel bo'lmagan bitta gennig bir nechta belgining rivojlanishiga o'xshash ta'sir ko'rsatishidir.
D) Fenotipda bir dominant genning allel bo'lmagan ikkinchi dominant gendan ustunlik qilishidir

7. Mutatsiya deb nimaga aytiladi?

A) Faqat xromosomada uchraydigan irsiy o'zgaruvchanlikka.
B) Faqat genda uchraydigan irsiy o'zgaruvchanlikka.
C) Genetik materialning irsiy o'zgarishiga.
D) Bitta genning bir qancha belgining rivojlanishiga ta'siriga.

8. Sodda hayvon va o'simliklarda xromosomalarining gaploid to'plamga nisbatan karra ortishi jarayoni nima deb ataladi?

A) Lizogeniya B) Pleyotropiya C) Konvergensiya D) Poliploidiya

9. Fenotipik o'zgaruvchanlikka xos xususiyatlarni aniqlang?

1. Irsiylanish xususiyatiga ega emas; 2. Irsiylanish xususiyatiga ega; 3. O'zgarishlar guruhli xarakterga ega; 4. O'zgarishlar tashqi muhit ta'siriga bo'g'liq; 5. O'zgaruvchanlik chegaralari genotip bilan aniqlanishi, ya'ni o'zgarishlar bir xil yo'nalishda bo'lishiga qaramay, ularning namoyon bo'lishdarajasi har xil organizmlarda turlicha bo'ladi. 6. O'zgarishlar tashqi muhit ta'siriga bog'liq emas.

A) 1, 3, 4, 6 B) 1, 2, 5, 6 C) 1, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 6

10. Nasldan –naslga o'tuvchi I - dominant hamda II - resessiv belgilarni to'g'ri juftlang?

1. Jingalak soch; 2. Sepkillar bo'lmasligi; 3. Malla soch; 4. Pakanalik; 5. Barmoqlar sonining normal bo'lishi; 6. Qo'y ko'z; 7. Sochning erta to'kilishi; 8. Sepkillar; 9. Polidaktiliya; 10. To'g'ri soch.

A) I- 1, 4, 5, 6, 10 II- 2, 3, 7, 8, 9 B) I- 1, 2, 6, 7, 10 II- 3, 4, 5, 8, 9
C) I- 1, 4, 6, 7, 9 II- 2, 3, 5, 8, 10 D) I- 2, 3, 5, 6, 10 II- 1, 4, 7, 8, 9

11. Qaysi usul yordamida qandli diabet kasalligining sabablari o'rganiladi?

- A) Sitogenetik usul B) Geneologik usul C) Egizaklar usuli D) Biokimyoviy usul

12. Finilketonuriya yangi tug'ilgan chaqaloqlarning nechtasida uchraydi?

- A) 10000 tadan bittasida B) 5000 tadan bittasida C) 500 tadan bittasida D) 200000 tadan bittasida

13. Odamlar populyatsiyasida qanchadan ortiq irsiy kasalliklar nasldan-naslga o'tishi aniqlangan?

- A) 1000 dan ortiq B) 2000 dan ortiq C) 2500 dan ortiq D) 3000 dan ortiq

14. Odamdagi irsiy kasalliklar va ularning paydo bo'lish sabablarini nima o'rganadi?

- A) Sitologiya B) Tibbiyot genetikasi C) Potologiya D) Fiziologiya

15. Gen kasalliklarini belgilang?

- A) Mikrocefaliya, Finilketonuriya B) Klaynfelter sindromi
C) Daun sindromi D) Shershevskiy-terner

16. O'rta yer dengizi qaysi o'simliklar markazi hisoblanadi?

- A) Dukkaklilar, qand lavlagi, zig'ir B) Karam, sabzi, bug'doy
C) Shakarqamish, sholi, suli D) Karam, qand lavlagi, beda

17. Madaniy o'simliklarning kelib chiqishining markazlari nechta?

- A) 5 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 8 ta

18. O'simliklarning kelib chiqish markazlarini juftlang?

1. Janubiy Amerika markazi; 2. Markaziy Amerika;
a-kartoshka; b- loviya; c-makkajo'xori; d-ananas; e-qalampir; g-tamaki.

- A) 1-a, d, g 2-b, c, e B) 1-b, c, d 2- a, g, e C) 1-a, g, e 2- b, c, d D) 1-a, b, g; 2- s, d, e

19. Vilt kasalligiga chidamli eng yaxshi g'oz navini aniqlang?

- A) Toshkent B) Ertapishar C) Uchqun D) Urganch

20. Hozirgi vaqtda odamda normal va patologik belgilarning qanchasi nasldan-naslga o'tib borishi o'rganib chiqilgan?

- A) 2000 ming B) 3000 ming C) 4000 ming D) 4500 ming

21. Klaynfelter sindromida jinsiy xromasomalar qanday bo'ladi?

- A) XXY, XXY B) XXY, XXXY C) XO, XXX D) XXO, XXX

22. Hozirgi kunda gen muhandisligi yo'li bilan viruslar ko'payishini to'xtatuvchi qanday oqsil olinadi?

- A) Insulin B) Prolin C) Metionin D) Interferon.

23. O'zbekiston seleksiyasiga hissa qo'shgan olimlarni aniqlang?

- A) A.M.Muzaffarov, J.A.Musayev, Mahmud Mirzayev
B) Rizamat ota Musamuhamedov, I.Azimov, O'.Pratov
C) U.Toshmuhamedov, J.A.Musayev
D) D.Abdukarimov, M.Mavloniy, O.Mavlonov

24. Genlarning o'zaro polimer ta'sirida bug'doyning qizil ($A_1A_1A_2A_2$) va oq ($a_1a_1a_2a_2$) navlarini o'zaro chatishtirib F_1 da pushti donlar olindi. Pushti donlar oq rangli navi bilan chatishtirilganda F_2 da qanday fenotipdagi donlar olinadi?

- A) 2 ta pushti, 1 ta och pushti, 1 ta oq B) 1 ta qizil, 2 ta och qizil, 1 ta och pushti
C) 2 ta pushti, 1 ta och pushti, 1 ta oq D) 1 ta och qizil, 2 ta och pushti, 1 ta oq

25. $AaBbCcDdEeFf$ genotipli organizm nechta gameta hosil bo'ladi?

- A) 32 ta B) 64 C) 48 ta D) 36 ta

Test javoblari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25
Javob	B	B	D	B	A	A	C	D	C	C	D	A	B	B	A	D	C	A	A	C	B	D	A	C	B